

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 5 791,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-mart yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1521,5 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,0 % ga ko'paygan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yil yanvar-martga nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart	
I. YaHM	4485,4	5791,2	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4365,8	5570,7	105,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	119,6	220,5	107,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4365,8	5570,7	105,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1345,9	1653,8	101,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1007,8	1380,6	114,6
sanoat	774,5	1112,2	117,0
qurilish	233,3	268,4	106,5
Xizmatlar	2012,1	2536,3	103,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	447,9	525,2	102,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	472,2	513,8	101,5
boshqa xizmat tarmoqlari	1092,0	1497,3	104,0

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida 101,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 29,7), sanoat – 117,0 %, (20,0 %), qurilish – 106,5 % (4,8 %) va xizmatlar sohasi 103,0 % (45,5 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-martida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Iqtisodiy faoliyat turlari


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 1,1 % punktga kamaydi va hisobot yilida 29,7 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMdagi ulushi 1,8 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 24,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi esa


45,5 % ni tashkil etib 2018 yilning mos davri (46,2 %) bilan taqqoslanganda 0,7 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 9,4 % ni (2018 yil yanvar-mart – 10,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 9,2 % ni (10,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 26,9 % ni (25,1 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Samarqand viloyat statistika boshqarmasi.
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi
Nashr uchun mas'ul: D.Almatov
(71) 230-85-19